

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING  
AHAMIYATI

***Boboxonov Oltiboy Raxmonovich,***

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti*

*“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasida assistenti*

[oltiboyboboxonov0162@gmail.com](mailto:oltiboyboboxonov0162@gmail.com) (99)-578-01-62

***Xusanov O'rol Sattarovich.***

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti*

*“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasida katta o'qituvchisi*

[xusanovural611@gmail.com](mailto:xusanovural611@gmail.com) (90)-521-77-48

**Annotatsiya:** Bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etishda foydalanuvchining interaktiv o'qitish usullaridan foydalanishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv, izlanish faoliyati, motivatsiya, kashfiyotchilik xususiyati

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri - o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, iymonliligi, bolajonliligi, o'z fanini mukammal bilishi va sevishi kabi xislatlari orqali boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. Chunki, ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi o'qituvchiga va uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri pedagog o'zi o'qitayotgan predmetni chuqur bilishi bilan birga, uning o'qitish metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. O'qitayotgan predmetning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qituvchining obro'yini ko'taradi. Pedagogik faoliyat, hayotda yuzaga keladigan har qanday vaziyatda kasbiyshaxsiy o'sishga olib keladigan holatni yaratish, o'qituvchiga xos kreativlik, ijodkorlik, kashfiyotchilik xususiyatlarini saqlashga intilish ham zamon bilan hamnafaslikni anglatadi. Uzlaksiz ta'lim jarayonida o'qituvchiga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olish kutilgan natijani beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, bugun nafaqat o'qituvchining kasbiy mahoratini tashqi omillar ta'sirida takomillashtirish, balki uning o'zini rivojlantirish uchun sharoit va motivatsiya yaratish, ichki intilishlariga asoslanish muhim bo'lmoqda.

O'qitish usuli-bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etish demakdir. Interaktiv o'qitish usuli ta'lim jarayonining oldindan belgilangan aniq maqsadi bo'lishini, ular bo'laklarga ajratilishini taqozo etadi. Shunday maqsadlardan biri-ta'lim sharoitini qulay va yoqimli bo'lishini ta'minlashdir. Talabalar darsda to'la o'zlashtirish imkoniyati borligini hamda mazkur masalaning o'zlashtirish usulini, mazkur masalani

ishlashga intellektual salohiyati yetarli ekanligini his qilishi alohida ahamiyatga ega. Shunday yoqimli psixologik iqlimda ta`lim jarayoni mahsulli faoliyatga aylanadi. Interaktiv o`qitish metodini qo`llash jarayonida o`quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o`zlari bilgan, esga tushirgan, o`ylagan ma`lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o`quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o`z hissasini qo`shadi. Bilimlari, g`oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko`rsatish usullari bilan o`quvchilar o`zaro fikr, tajriba almashadilar. O`zaro fikrlashish, tajriba almashish jarayoni samimiy, sidqidildan o`zaro qo`llab-quvvatlashdek iliq ruhiy iqlimda bo`lib o`tsa, bu holat nafaqat yangi bilim olishni ta`minlaydi, balki bilish faoliyatini oshiradi, faollashtiradi, ularni bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi. Darslardagi interaktiv faoliyat 5 ta asosiy elementlardan tashkil topadi.

1. Ijobiy-samimiy o`zaro bog`liqlik.
2. Guruh ichida shaxsiy mas`uliyatlilik.
3. Bir-biriga ta`sir etuvchi o`zaro faoliyat.
4. Hamkorlikda ishlash malakasi.
5. Guruhda ishlash.

Interaktiv metod bir kishining fikri, chiqishlarini boshqalarnikidan ustun qo`yishni ta`qiqalaydi. Barcha o`qituvchilardan talabalarning har birini o`ziga xos qarashi, fikri, xulosasi borligini hisobga olishni, hurmat qilishni talab etadi. Interaktiv o`qitish metodi sinfda sheriklik atmosferasini yaratish uchun aniq imkoniyatlarga ega. U yaxshi dars o`tishning tayyor retsepti bo`lmasdan, mazkur o`qitish metodiga asoslangan ta`lim texnologiyasi, o`qituvchi va o`quvchilarni ijodiy muallifdoshi tartibida ishlashga o`rgatadi. Natijada o`quvchi hayotning, ishlab chiqarishning har qanday o`zgarishlariga ko`ra o`zini standart bo`lmagan xulosa va qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish malakasini egallaydi.

Pedagogik jarayonda ta`lim-tarbiya ishining muvaffaqiyati o`qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirib borishiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Kasbiy mahoratni takomillashtirish o`qituvchi shaxsiga xos bo`lgan bir qancha sifatlarni - uning aql-zakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos ijobiy xususiyatlarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Bu xususiyatlar tufayli qobiliyatli va mahoratli o`qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab katta natijaga erishadi.

Masalan, "keys-stadi"ni takrorlash umumlashtirish darslarida yoki muammoli vaziyatlar ko`p ushrashadigan mavzularda, "Insert" texnikasini o`tilgan mavzuni mustahkamlash uchun uyga vazifa sifatida, "FSMU", "Nima uchun", "Venn diyagrammasi", "Qiyosiy taxlil", "Klasster", "Auktsion" texnologiyalarini mavzu o`rtasida qo`llash mumkin. Bu texnologiyalarni o`qituvchi albatta o`z fani mavzulariga moslashtirib o`rni-o`rnida foydalanadi. Huquqshunoslik fanida "Jinoyat huquqi"

mavzusi bo'yicha keys-stadi mustaqil ish uchun topshiriq sifatida berilsa maqsadga muvofiq. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- samimiy do'stona munosabat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
  - o'quvchilarning shaxsiy ijodiy imkoniyatlarini, sifatlarini ochirish;
  - o'quvchilarni passiv tinglovchidan aktiv ishtirokchi darajasiga ko'tarish
  - mustaqil izlanishga va mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
  - guruhlarda o'zini namoyon eta olish, bir-birlarini tinglash qobiliyatlarini tarbiyalash;
  - o'quvchilarning o'z g'oyalari, fikrlarini yozma ximoya qilish imkoniyatlarini rivojlantirish;
  - jamoaviy va mustaqil ishlashga, o'quv va h ayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash, ularning fikrlash qobiliyati va nutq faoliyatini shakllantirish;
  - aniq bir mavzu rejasi yuzasidan aniq bir tushuncha xosil qilishiga o'rgatish;
  - yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirish;
- oilaviy hayotga ruhiy, ma'naviy tayyorlash, mas'uliyatni his qilishga o'rgatish.

**Xulosa:** Demak, yuqoridagilarni hisobga olgan holda har bir o'qituvchi o'z oldiga aniq bir pedagogik maqsad va vazifani belgilab olishi zarur. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan ya'ni ta'lim berishning yangi usullaridan foydalanish birinchidan, darsning samarali bo'lishini ta'minlaydi, ikkinchidan o'quvchilarning shu darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi, uchinchidan o'qituvchi darsga qo'ygan maqsadiga erishadi. Eng asosiysi biror bir texnologiyani qo'llashdan oldin o'quvchilarning qiziqishini inobatga olgan maqul, shundagina aniq bir natijani qo'lga kiritish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasida kadrlarni tayyorlash milliy dasturi", T. 1997
2. Yu. K. Babanskiy "O'qitish jarayonini optimallashtirish", M. 1977 yil
3. A.X. Munavvarov tahriri ostida. "Pedagogika" T. O'qituvchi 1996 yil. T. 1997 yil.